

G'ARBIY YEVROPA VA ROSSIIYADA XIX ASRGACHA BO'LGAN TILSHUNOSLIK

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz tili filologiyasi, o' qitish metodikasi va

tarjimashunoslik fakulteti

sharq tillari (xitoy tili) yo'nalishi

102-guruh talabasi

O'rmonjonova Gulzoda Islomjon qizi

Ilmiy maslahatchi: Zaynabiddinova I.M

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'arbiy Yevropa va Rossiyada XIX asrgacha bo'lgan tilshunoslikning shakllanish jarayonlari, uning nazariy asoslari, tarixiy rivojlanish bosqichlari, qadimgi va o'rta asr manbalari, Uyg'onish davri ta'siri hamda Rossiyada Lomonosov maktabining o'rni keng yoritilgan. Mazkur maqola tilshunoslik fanining XIX asrgacha qanday bosqichlardan o'tgani va keyinchalik qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanishiga qanday ilmiy zamin yaratilganini ilmiy asosda tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Yevropa tilshunosligi, Rossiya lingvistika maktabi, qadimgi yunon grammatikasi, Uyg'onish davri, umumiy grammatika, Lomonosov.

Annotation: This article provides an extensive analysis of the development of linguistics in Western Europe and Russia up to the 19th century. It examines ancient and medieval grammatical traditions, the influence of the Renaissance on linguistic thought, the formation of rationalist universal grammar, and the contribution of Lomonosov's linguistic school in Russia. The study also explores how these historical stages prepared the ground for the emergence of comparative-historical linguistics in the 19th century.

Keywords: European linguistics, Russian linguistic school, ancient Greek grammar, Renaissance, general grammar, Lomonosov.

Аннотация: В статье дан комплексный обзор процессов становления языкознания в Западной Европе и России до XIX века, его теоретических основ, этапов исторического развития, античных и средневековых источников, влияния эпохи Возрождения и роли ломоносовской школы в России. В статье на научной основе анализируются этапы, которые проходило языкознание до XIX века, и какая научная база была создана для формирования сравнительно-исторического языкознания в дальнейшем.

Ключевые слова: европейское языкознание, русская лингвистическая школа, древнегреческая грамматика, эпоха Возрождения, общая грамматика, Ломоносов.

G'arbiy Yevropa tilshunosligining shakllanishi uzoq tarixiy jarayonni qamrab oladi. Tilni ilmiy jihatdan o'rganish qadimgi yunon falsafiy maktablari boshlangan bo'lib, Platon, Aristotel, Gorgiy va stoiklar tilning tabiati, ma'no va shakl birligi, nutqning mantiqiy tuzilishi masalalarini ilk bor nazariy jihatdan yechishga harakat qilganlar. Ularning qarashlari Yevropa tilshunosligi rivojining barcha bosqichlariga uzoq vaqt ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi yunon grammatiklari tilni mantiq bilan chambarchas bog'liq holda talqin qilganlar.

Aristotel tilni fikrning vositasi deb bilib, hukm, predikat, sub'ekt, kategoriyalar, so'z turkumlari kabi tushunchalarni tilshunoslikka olib kirgan. Stoiklar esa grammatikani mustaqil ilmiy sohaga aylantirib, nutqning tuzilishi, sintaksisning dastlabki qoidalarini ishlab chiqqanlar. Ana shu nazariy asoslar keyinchalik Rim grammatiklari Donat va Priskianning ishlari orqali Yevropa ilmiy an'anasiga mustahkam kirib bordi. O'rta asr Yevropasida tilshunoslik asosan lotin tiliga tayandi. Lotin tili cherkov, diplomatiya, fan va adabiyotning asosiy tili bo'lgani uchun barcha grammatikalar ushbu til asosida yaratilgan. O'rta asrlarda grammatika diniy-falsafiy fanlar bilan uzviy bog'lanib, nutqni "to'g'ri" ishlatish qoidalarini belgilashga qaratilgan edi. Ushbu davr grammatikasi ko'proq normativ xarakterga ega bo'lib, tilni rivojlantirishdan ko'ra uni saqlab qolish va tartibga solish bilan shug'ullangan. Uyg'onish davri Yevropada ilmiy fikrning uyg'onishi bo'lib, milliy tillarga bo'lgan qiziqish nihoyatda kuchaydi. Shu davrda italyan, fransuz, nemis, ingliz tillarining ilk ilmiy grammatikalari yaratildi. Ularning aksariyati lotin grammatikasi qolipida tuzilgan bo'lsa-da, milliy tillarni o'rganishga kuchli turtki berdi. Filologik tadqiqotlar, tarixiy matnlarni tahlil qilish, fonetik va morfologik o'zgarishlarni kuzatish tilshunoslikning ilmiylashuviga olib keldi. XVII-XVIII asrlarda Yevropada ratsionalizm oqimi keng tarqaldi. Port-Royal grammatikachilari tomonidan yaratilgan "Umumiy grammatika" barcha tillarda umumiy mantiqiy tuzilma mavjud degan g'oyani ilgari surdi. Bu yondashuv tilni mantiqiy kategoriyalar orqali sharhlashga asoslandi va XIX asrgacha davom etgan universal grammatika konsepsiyasining asosini tashkil etdi.

Tilning shakli o'zgarishi mumkin, ammo tafakkur universal ekanligi sababli barcha tillarda umumiy grammatik asoslar mavjud degan nazariya paydo bo'ldi. Rossiyada tilshunoslikning shakllanishi Yevropa an'analari bilan bog'liq bo'lsa-da, XVIII asrdan boshlab milliy lingvistik maktab yuzaga keldi. Bu jarayonda M.V. Lomonosovning o'rni beqiyosdir. U rus tilining fonetikasi, morfologiyasi va uslubiy gatlamlarini ilmiy asosda tasniflab, rus adabiy tilining poydevorini yaratgan. Lomonosovning ilmiy qarashlari Rossiya tilshunosligining mustagil yo'nalish sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

XIX asrgacha bo'lgan davrda Yevropa va Rossiyada tilshunoslikning asosiy maqsadi tilni tavsifiy va normativ o'rganish bo'lib qoldi. Tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti yoki qarindoshlik bog'lanishlari ilmiy darajada chuqur o'rganilmagan. Biroq ushbu davrda to'plangan grammatik material, fonetik kuzatuvlar, yozma yodgorliklarning tahlili qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi uchun zarur nazariy poydevor bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. — Тошкент: Академнашр, 2012.
2. Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов И. Тилшуносликка кириш. — Тошкент: Укитувчи, 1981.
3. O'rinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent: Oltin kitob, 2022.
4. Расулов Р. Умумий тилшунослик. Дарслик. — Тошкент, 2013
5. Sharipova O', Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent, 2006.